

Namangan Davlat Universiteti
Fizika-Matematika fakulteti Kasb
ta'limi yo`nalishi 404-guruh talabasi
ISTAMALIYEVA HILOLning
Kostyum tarixi va
kompozitsiyasi
fanidan tayyorlagan

REFERAT ISHI

Mavzu: Kompozitsiya kategoriyalari

Kompozitsiya kategoriyalari.

Reja:

1. Materialning xususiyatlari va tektonika;
2. Buyumni ishlab chiqarish texnologiyasi va tektonika;
3. Shakl va tektonika;
4. Gavda tuzilishi va tektonika;
5. Siluetlarning geometrik asosini belgilash.
6. Konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativ chiziqlar.

Tektoniklik

Tektonika shakldagi konstruksiya va material bajarayotgan ishining ko'zga ko'rinib turadigan aksidir.

Tektonik shakl — bu sanoat buyumi shakli konstruksiyasining va tayyorlanish usulining material xususiyatlarini badiiy tushunib etish, ularni ko'rsatib berish nuqtai nazaridan ifoda topgan ishi. Material yoki tayyorlanish usuli tektonik shaklni topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rassom material xususiyatlarini, uning konstruksiyadagi ishini va buyumning tayyorlanish texnologiyasi xususiyatlarini-bularning hammasini umumiy g'oyaga, ya'ni badiiy va kompozision mo'ljalga bo'ysundirib ongli ravishda tanlaydi, topadi, bo'rttirib ko'rsatadi. Har bir materialning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlar muayyan shaklga asos qilib olinadi

Kostyum hajmiy-fazoviy shaklining xususiyatlari.

Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o'zaro muayyan ta'sir etishi nuqtai nazaridan qarash, ya'ni uni hajmiy-fazoviy struktura, deb hisoblash mumkin. Bu struktura ba'zan oddiy va ixcham, ba'zan esa juda murakkab bo'ladi. Hajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat'i nazar undagi barcha elementlarning o'zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg'unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Kompozitsiyaning ikkita asosiy kategoriyasi o'zaro mustahkam bog'liqdir. Tektonikaning buzilishi (konstruktiv asos ishining soxta aks etishi) sanoat buyum hajmiy-fazoviy strukturasi elementlarining uzviy aloqadorligiga albatta tasir etadi, shuningdek hajmiy-fazoviy echimning prinsip jihatidan noto'g'ri hal etilishi tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

Kiyimning konturlari.

Kiyimning konturlarini, kiyim alohida qismlarining va detallarining konturlarini chiziq lar deb olsa bo'ladi. Kiyim kompozitsiyasi to'g'ri, egri va siniq chiziqlardan tuziladi. Kiyimda quyidagi asosiy chiziq guruhlari bo'ladi:

siluet chiziqlari - shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziqlar;

konstruktiv chiziqlar - kiyim shaklini hosil qilishdagina qatnashadigan chiziqlar: elka choklari, yon choklar, vitochkalar, eng o'tkazish choklari va hokazo;

konstruktiv-dekorativ chiziqlar - ham shakl hosil qiluvchi, ham dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: bo'rtmalar, koketkalar, ulash choklari, qirqmalar, mayda taxlamalar, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, burmalar va hokazo.

dekorativ chiziqlar - dekorativ vazifalarnigina bajaruvchi chiziqlar: qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, tasmalar, to'rlar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar va hokazo.

SILUET

«silhouette» (fransuzcha) Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proeksiyasi, har qanday buyumning tashqi chiziqlari, uning soyasi. Odatda kostyum shaklini asosan frontal siluetlar va kamroq payitlarda profil siluetlar xarakterlaydi.





